

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



3. www.ziyounet.uz
4. www.geogr/msu.ru
5. www.stat.uz
7. Fan dasturi Jizzax davlat pedagogika instituti Kengashining 202 / yil "27" 08 dagi / -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8. Fan/modul uchun ma'sullar: G'o'dalov M.R. JizzaxDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida dots. v/b.
9. Taqrizchilar: Yarashev Q.S.-SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasida mudiri, g.f.n., dots. Hakimov Q.M. JizzaxDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida prof. v/b/, g.f.n

AMALIY LANDSHAFTSHUNOSLIK
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 - Ta'lim
Magistratura mutaxassisligi: 70111001-Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (Geografiya)

• 000000

Fan/modul kodi 351ALM1004	O'quv yili 2021-2022	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama(soat)
AMALIY LANDSHAFTSHUNOSLIK	Ma'ruza – 30 Amaliy – 30	60	120
<p>2. I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarda boshqa fanlar, jumladan, umumiy tabiiy geografiya, tuproqshunoslik, geologiya va geomorfologiya, landshaftshunoslik asoslari kabi tabiatshunoslikka oid fanlardan olingan bilimlar asosida landshaftlarni baholash, ularning taraqqiyotini prognozlash, landshaftlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, antropogen landshaftlar, zamonaviy ekologik muammolarni hal etishda mazkur bilimlardan foydalana olish bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - magistrantlarga landshaft va inson o'zaro munosabatlarining ilmiy asoslarini o'rgatish, tabiiy va antropogen ta'sir natijasida landshaftlarda bo'layotgan tabiiy jarayonlarni tahlil etish, landshaftlarni xo'jalikning turli sohalari uchun baholash metodlarini o'rgatish hamda landshaftlarning taraqqiyotini prognozlash haqida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Kirish. Amaliy landshaftshunoslik kursi maqsadi va vazifalari. Kirish. Amaliy landshaftshunoslikning nazariy asoslari. Fanning tadqiqot ob'ekti va predmeti. Uning ilmiy va amaliy ahamiyati. 2-mavzu. Amaliy landshaftshunoslikning rivojlanishi. Landshaftshunoslikning fan sifatida vujudga kelishi. Unda g'oya va tushunchalarining shakllanishi hamda rivojlanishi. Geografiya fanlari tizimida tutgan o'ri. 3- -mavzu. Amaliy landshaftshunoslikning yo'nalishlari. Landshaftshunoslik fani taraqqiyoti davomida vujudga kelgan ilmiy</p>			

yo'nalishlari. Zamonaviy landshaftshunoslikning tuzilishi: nazariy, metodik, amaliy landshaftshunoslik.

4-mavzu. Meliorativ landshaftshunoslik.

Melioratsiyaning rivojlanishi va shakllanishining qisqacha tarixi. Meliorativ tadqiqotlarda qo'llaniladigan asosiy prinsip va metodlar. Melioratsiyaning turlari: qor, suv, er, o'simlik melioratsiyasi.

5-mavzu. Antropogen landshaftshunoslik.

Antropogen landshaft tushunchasining shakllanishi va Antropogen landshaftshunoslikning vujudga kelishi. Antropogen landshaftlarning xilma-xilligi va tasnifi.

6-mavzu. Inson-tabiat aloqadorligi.

Insonni tabiatga ta'sirining qisqacha tarixi. Insonning tabiatga ta'siri. Insonning tabiatga bevosita va bilvosita ta'siri. CHo'llanish jarayoni va unga qarshi kurashning geografik asoslari. Tuproqlarning sho'rlanishi va uni oldini olish masalalari.

7-mavzu. CHo'llanish muammosi.

CHo'llanish va sho'rlanish muammosi. CHo'llanish jarayonining rivojlanishi, tabiiy va antropogen omillar. Hududlar bo'yicha cho'llanish turlari. Antropogen cho'llanish. CHo'llanish jarayoniga qarshi kurash.

8-mavzu. Tuproqlarning sho'rlanishi

Tuproqning sho'rlanishi birlamchi (dastlabki) va qayta sho'rlanish. SHo'rlangan tuproqlarning global tarqalishi. SHo'rlanishga qarshi kurash.

9-mavzu. Landshaftlarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlari nuqtai nazaridan baholash.

Baholashning mazmun mohiyati. Baholashning asosiy prinsiplari va metodlari. Landshaftlarni xo'jalikning turli maqsadlarida baholashning asosiy xususiyatlari va muammolari. Landshaftlarni baholashga oid tadqiqotlar tavsifi. Landshaftlarni ekologik baholash. Landshaftlarni iqtisodiy baholash. Landshaftlarni estetik baholash. Tabiiy sharoitni qishloq xo'jaligi uchun baholashda landshaft xususiyatlarini inobatga olish. Landshaftlarni rekreatsiya, shaharsozlik maqsadlarida baholash.

10-mavzu. Agrolandschaftshunoslik.

Muhitning agromillari: geomorfologik, gidrologik, iqlimiy va tuproq. Agroiqlimiy resurslar va agroiqlimiy rayonlashtirish.

11-mavzu. Landshaftlar monitoringi.

Monitoring, uning turlari (biosfera, Er, suv, havo, geoeologik monitoring va x.k), monitoring klassifikatsiyasi (global, regional, lokal).

12-mavzu. Landshaftlar taraqqiyotini prognozlash va prognozlash metodlari.

Prognoz tushunchasi. Tabiiy geografik, iqtisodiy geografik va kompleks geografik prognozlar. Dunyoviy, regional va mahalliy prognozlar.

Landshaftlar taraqqiyotini prognozlash. Uning asosiy tamoyillari. Prognozlash metodlari: ekspert-baholash, landshaft genetik qatorlari, funksional bog'liqliklar metodi, tabiiy geografik ekstrapolyasiya metodi va boshqalar.

13-mavzu. Landshaftlar holatini kuzatishda dala tadqiqotlari.

Landshaft tadqiqot metodlari. Landshaft tadqiqotlarni bajarish bosqichlari. Landshaftlar holatini kuzatish, salbiy holatlar yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish. Landshaftlarning o'zgarish darajasini aniqlashga qaratilgan dala tadqiqot ishlarini olib borish.

14-mavzu. Amaliy landshaftshunoslikda xaritalashtirish masalalari.

Landshaftlarni kartalashirish tarixi. Landshaft xaritalari: tuzilishi va tasnifi. Landshaft xaritalari legendasi. Mayda masshtabli, o'rta masshtabli va yirik masshtabli landshaft kartalarini tuzishning asosiy xususiyatlari va metodlari. Amaliy landshaftshunoslik maxsus kartalarini tuzish.

T/ r	Ma'ruza mavzulari mazmuni	Dars soatlari hajmi
1.	Kirish. Amaliy landshaftshunoslik kursi maqsadi va vazifalari	2
2.	Amaliy landshaftshunoslikning rivojlanishi	2
3.	Amaliy landshaftshunoslikning yo'nalishlari	2
4.	Meliorativ landshaftshunoslik	2
5.	Antropogen landshaftshunoslik	2
6.	Inson-tabiat aloqadorligi	4
7.	CHo'llanish muammosi	2
8.	Tuproqlarning sho'rlanishi	2
9.	Landshaftlarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlari nuqtai nazaridan baholash	2

10.	Agrolandshaftshunoslik	2
11.	Landshaftlar monitoringi	2
12.	Landshaftlar taraqqiyotini prognozlash va prognozlash metodlari	2
13.	Landshaftlar holatini kuzatishda dala tadqiqotlari	2
14.	Amaliy landshaftshunoslikda xaritalashtirish masalalari	2
	Jami	30

III. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
 Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tiladi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llaniladi.

T/r	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Dars soatlar hajmi
1.	Amaliy landshaftshunoslikning ilmiy va amaliy ahamiyatini tahlil etish	2
2.	Amaliy landshaftshunoslikning rivojlanish tarixi	2
3.	Amaliy landshaftshunoslikning yo'nalishlari	2
4.	Tabiat komponentlari xaritalarini qiyosiy tahlil qilish	2
5.	Landshaftlarning tabiiy va antropogen ta'sir natijasida o'zgarishlarini o'rganish	2
6.	Inson-tabiat aloqadorligi masalalarini tahlil etish	2
7.	O'z hududi bo'yicha cho'llanish va sho'rlanishga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish	2

8.	O'zbekiston muayyan tabiiy geografik okrugi landshaftlarini ekologik, iqtisodiy va estetik baholash	2
9.	O'z hududi agrolandshaftlarni tahlil etish	2
10.	“Amaliy landshaftshunoslik” o'quv fanida uchraydigan termin va atamalar bo'yicha glossariy tayyorlash	4
11.	Tabiatga ekskursiya, antropogen (buzilgan va madaniy) landshaftlarni o'rganish	4
12.	Tabiatga ekskursiya. Landshaftlar holatini kuzatishda dala tadqiqotlari	4
	Jami	30

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy masalalarni echish ko'nikmasini hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar.

T/r	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
1	Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish	6
2	Antropogen landshaftning tabiiy landshaftlardan ajralib turadigan xususiyatlari.	6
3	Madaniy landshaft	8
4	Buzilgan landshaft	6
5	Inson-tabiat aloqadorligi natijasida vujudga kelgan muammolar	6
6	Inson-tabiat aloqadorligi masalalarini materiklar(yoki davlatlar) bo'yicha tahlil eting	6

7	O'z hududingiz yoki okrugingizda inson-tabiat aloqadorligi natijasida vujudga kelgan muammolarni tahlil eting	6
8	Cho'llanish jarayonini materiklar bo'yicha tahlili	10
9	Geoekologik (geotizimli) monitoring	6
	Jami	60

3. V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Amaliy landshaftshunoslikning fanlar tizimida tutgan o'rni va yo'nalishlari, amaliy landshaftshunoslikning umumiy va regional muammolari; amaliy landshaftshunoslik; landshaftlarni milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari, xususan shaharsozlik, qishloq xo'jaligida foydalanish nuqtai nazaridan baholashning ilmiy asoslari; landshaftlarning taraqqiyot yo'nalishlarini aniqlash; ularning inson ta'sirida o'zgarishini va bu o'zgarish qayvi yo'nalishda ro'y berishini oldindan aytib berish, ya'ni prognozlash; o'zgartirilishi lozim bo'lgan landshaftlarni xaqiqiy madaniy landshaftlarga aylantirish va ularning samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**

- landshaftlarni baholashning asosiy metodlari va prinsiplarini; landshaftlar taraqqiyotini prognozlashning asosiy tamoyillari va metodlarini; landshaft xaritalarini tuzish va ulardan foydalanishni; antropogen landshaftlarning asosiy xillarini; landshaft tadqiqotlari ilmiy natijalaridan tabiatdan oqilona foydalanish tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

- landshaftlarning holatini kuzatib borish; antropogen landshaftlar klassifikatsiyasini aniqlay olish; landshaftlarning o'zgarganlik darajasini aniqlashga qaratilgan dala-tadqiqot ishlarini olib borish; ular asosida baholash va prognozlash; antropogen landshaftlarda dala tadqiqot ishlarini olib borish; maxsus xaritalarni tuzish, turli kuzatuv asboblari va ulardan foydalanish; topografik xarita va aerokosmik materiallardan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);

- guruhlarda ishlash;
 - taqdimotlarni qilish;
 - individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat.

Oliy ta'limda talabalar o'zlashtirishini baholash tizimlarini qiyosiy taqqoslash

JADVALI

Taklif etilayotgan O'zbekiston tizimi	Rossiya tizimi (MDU)*	Evropa kredit transfertizimi (ECTS - European Credit Transfer System)	Amerika tizimi (A-F)	Britaniya tizimi (%)	Yap o'ny a tizimi (%)	Koreya tizimi (%)	O'zbekiston tizimi (%)
«5»	«5»	«A»	«A+» «A»	70— 100	80— 100	90— 100	90— 100
«4»	«4»	«B»	«A+» «B+»	65— 69	70— 79	80— 89	70— 89,9
«3»	«3»	«C»	«B» «B+»	50— 59	60— 69	70— 79	60— 69,9
«2»	«2»	«D»	«C+» «C» «D+» «D» «D+» «D»	45— 49	60— 69	70— 79	60— 69,9
		«E»	«E»	40— 44	60— 69	60— 69	60— 69,9
		«FX»	«E»	0—	0—	0—	0— 59,9

		«F»		39	59	59
Amaliy landshaftshunoslik fani bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat mezonlari						
№	Nazorat turlari	Nazorat o'tkazish muddatlari (har bir modul yakunidan nazorat o'tkaziladi)	Ajratilgan ballar			Umumi y ball
			Eng yuqari ball	O'tish balli		
1	Joriy nazorat (fan 5 moduldan iborat)	1 modul	5	3		30
		2 modul	5	3		
		3 modul	5	3		
		4 modul	5	3		
		5 modul	5	3		
		6 modul	5	3		
2	Oraliq nazorat	Oraliq nazorat			20	20
		Mustaqil ish				
3	Yakuniy nazorat	Yakuniy nazorat	50			50
	Jami					100
6. Asosiy adabiyotlar						
1. Зокиров Ш.С. Антропоген ва амалий ландшафтшunoslik. – Т.: “Университет”, 1998.						
2. Zokirov Sh. S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. –Т.: “Turon zamn ziyo”, 2016.						
3. Rafikov A.A., Sharipov Sh.M. Geoeкологиya. Т.: “Adib”, 2014.						
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq						

so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O'zbekiston”, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha harakatlarni strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-sop, 70-moddada.
7. Абдулкасимов А.А. Проблемы изучения межгорно-котловинных ландшафтов Средней Азии. Монография. Ташкент: Фан, 1983.
8. Abdulqosimov A.A. Mas'ul muharrir. Antropogen landshaftshunoslik. Ilmiy maqolalar to'plami. SamDU nashri. 2014.
9. Абдулкасимов А.А., Давранов К.К. Структура ландшафтов межгорных котловин Средней Азии. Монография. Т. “Iqtisod-moliya” 2015
10. Zokirov Sh.S. Antropogen va amaliy landshaftshunoslik. – Т.: “Universitet”, 1998.
11. Zokirov Sh. S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. –Т.: “Dizayn-press”, 2013.
12. Мильков Ф.Н. Человек и ландшафт. Очерки по антропогенного ландшафтоведения. М. 1973.
13. Rafiqov A.A., Sharipov Sh.M. Geoeкологиya. Т.: “Adib”, 2014.
14. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. –М.: 1991.
15. “Amaliy landshaftshunoslik” fani bo'yicha ta'yuorlangan O'UM.
16. Звонкова Т.В. Географическое прогнозирование. М.: “Высшая школа”. 1987.
17. Исаченко А.Г. Оптимизация природной среды. М.: “Мысль”.1980. – 264 с.
18. Николаев В.А. Ландшафты азиатских степей. –М.: 1999.
19. Сочава В.Б. Введение в учение о геосистемах. –Новосибирск.: 1978.
20. Sultonov Yu. “Landshaftlar geografiyasi” Т., 1974.
21. Хасанов И.А. Оценка природных территориальных комплексов Каршинской степи для оросительной мелiorации. Т.: “Фан” 1981.
22. Kulke E. Wirtschafts - geographie. Munxen – Zurich. “Ferdinand Schoningh” 2004.
Axborot manbaalari
1. www.bearingpoint.uz
2. www.gwrpcasna.org